



APPLICATION OF EFFECTIVE METHODS IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE

Temirbekova Nursuluv Tursumatovna¹

¹ Russian language teacher

Urta Chirchik Vocational School No. 1

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4898035>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021

Accepted: 25th May 2021

Online: 30th May 2021

KEY WORDS

languages, method,
development, potential,
knowledge

ABSTRACT

This article discusses the effective methods of using interactive methods of teaching Russian and their advantages.

RUS TILI FANINI O'QITISHDA SAMARALI USULLARNI QO'LLASH

Temirbekova Nursuluv Tursumatovna¹

¹ Rus tili fani o'qituvchisi

O'rta chirchiq 1-son kasb hunar maktabi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma'qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

tillar, usul,
rivojlanish, salohiyat, bilim

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rus tillar o'qitilishining interfaol usullardan foydalanishning samarali usullari va ularning afzalliklari haqida so'z boradi.

Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, o'quvchilarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar innavotsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha a'nanviy talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga urgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyada esa ularni

egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga mustaqil urganib tahlil qilishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlantirishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yunaltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari aqlli va ijodkor o'quvchilarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar innavotion texnologiyalarni o'rni va roli benihoyat kattadir.



Bundan pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovation texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunini tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarni o'ziga hosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birligida faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga hos husisiatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda o'sib borishini ta'minlashi ; o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijobiy yondashishi ushbu fikrlarga misol bo'la oladi. Muammoli o'qitish bu takomillashgan va samarador o'qitish texnologiyasidir. Uning mohiyati, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarini o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Darsni to'g'ri tashkil etish va turli o'yin, topishmoqlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Ingliz tili darslari misolida beradigan bo'lsak, masalan; rus tilida "Yil fasllari" mavzusi o'tilmoqda. Avvalo, o'quvchilar xonaga kirishlari bilan ular uchun fan va mavzu muhitini yaratib berishimiz kerak bo'ladi. Salomlashish, yangiliklar va uy vazifalarini so'rab bo'lganimizdan so'ng, yangi mavzu

nomini aytmasdan turib, mavzuga yaqinlashtiruvchi misollar keltirish kerak. Masalan, Сколько сезонов в году? Какой ваш любимый сезон? O'quvchilar mavzuga moslasha boshlaydi. Mavzuga doir yangi so'zlarni odatda o'quvchilarga yodlash uchun beramiz. Agar ularga shu so'zlar tez aytish, topishmoq tarzida aytilsa, yangi mavzu yanada qiziqarli bo'ladi va o'quvchining ushbu mavzuni o'zlashtirishi oson bo'ladi.

Masalan:

*Зазвенели ручьи,
прилетели грачи.
В улей пчела
первый мёд принесла.
Кто скажет, кто знает,
когда это бывает? (Bahor)*

*В небе - радуга-дуга.
На грядке - ягода-нуга,
Солнцем озеро согрето:
Всех зовёт купаться (Yoz)*

*Пришла без красок И без кисти И
перекрасила все листья. (Kuz)*

*Запорошила дорожки,
Разукрасила окошки.
Радость детям подарила
И на санках прокатила. (Qish)*

Topishmoqni tarjima qilish jarayonida uni o'quvchi oson yodida saqlab qoladi, shu bilan birga yil fasllarining nomlari rus tilida va unga bog'liq bo'lgan so'zlarni ham eslab qoladi. Javob topish barobarida o'quvchi topishmoqni bir necha bor o'qiydi hamda ixtiyorsiz ravishda xotirasida saqlab qoladi, mustaqil fikrlashni va topishmoqda keltirilgan so'zlar bilan boshqa gaplar tuzishni xam o'rganadi. Bu usul o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham ijodkorlikni talab qiladi. Albatta, barcha mavzularda ham bu kabi topishmoq va tez aytishlarni topish mushkul. Lekin hammasi pedagogning mahorati va



ijodkorligiga bog'liq. Bunday vaziyatlarda turli o'yinlardan ham foydalanish mumkin. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi hamda o'z samarasini beradi. O'yin jarayonida o'quvchi o'zini erkin xis qiladi, o'ziga bo'lgan ishonchi va tilga qiziqishi ortadi. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Talim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga quyilmoqda. 2. Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyani tadbqiq etish kadrlar

tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi.

3. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga olib keladi. Yuqorida sanab o'tilgan texnologiyalarning barchasi o'ziga xos. O'qitish jarayonida bu texnologiyalardan foydalanib turlicha natijalarga erishish mumkin. Demak, har bir texnologiya o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Faqat texnologiyalarni dars jarayonida qo'llayotganda, ularni darning qaysi qismida foydalanish kerakligini va qaysi qismida foydalansa ko'proq samara berishi mumkinligini aniqlab olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. Science and Education,
2. Ходжамкулов, У. (2019). Педагогический кластер-новый инновационный аспект. Теория и практика современной науки, (2), 41-45.
3. Khoshimova, D., Otajonova, D., & Khaldarchayeva, G. (2020). Modern Technologies in Teaching Foreign Languages. Academic Research in Educational Sciences